



5-SINFDA ABDUSAID KO‘CHIMOV HIKOYALARINI O‘RGANISH METODIKASI

Qunduzxon Husanboyeva,
pedagogika fanlari doktori, professor,
“Metodist” jurnali bosh muharriri

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15207493>

***Annotatsiya.** Maqolada yozuvchi A. Ko‘chimovning amaldagi beshinchi sinf “Adabiyot” darsligida taqdim etilgan hikoyalarini o‘rganish metodikasi taqdim etilgan. Darslikda muallifning “Boychechak” va “Hovlidagi maydoncha” hikoyalarini o‘rganishda asos bo‘ladigan talqin va o‘quvchilarda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikmalar ham qamrab olingan.*

***Kalit so‘zlar:** hamkorlik pedagogikasi, o‘quv-didaktik tahlil, asarga yondashuv talqini, badiiy haqiqat, ahloqiy mezonlar, ma’naviy kamolot, ijodiy imkoniyat.*

Ta’lim amaliyotiga yangi kirib kelgan 5-sinf “Adabiyot” darsligida Abdusaid Ko‘chimovning “Boychechak” va “Hovlidagi maydoncha” hikoyalari o‘rganish uchun taqdim etilgan. Muallif qalamiga mansub har ikkala hikoya qahramonlari taxminan beshinchi sinf o‘quvchisi yoshidagi bolalar. Hikoyalardagi qahramonlarning har biri o‘ziga xos xarakterga ega tarzda shakllantirilgan. Bu asarlarni o‘rganish o‘quvchilarni o‘zlariga tashqaridan qarashga, qahramonlar qilmishlari tahlili jarayonida o‘z tutumlarini taftish qilishga yo‘naltirishi bilan diqqatga sazovor.

Tabiiyki, ideal darajada yaxshi odam bo‘lmagani singari, tom ma’noda yomon odamning o‘zi yo‘q. Har bir inson o‘ziga xos fazilatlar va illatlar sohibi. Har kimda o‘zi bilan birga tug‘ilgan xarakter – fe‘l-atvor mavjud. Odamzodga Alloh tomonidan berilgan fe‘l hamisha ham tarbiyaga bo‘y beravermaydi. Odamning fe‘liga yarasha taqdir, taqdiriga yarasha fe‘l berib qo‘yilgankim, bandasi o‘z o‘y-fikrlari, tutumlari bilan tabiati yetovida taqdiri sari boradi.

A. Ko‘chimov har ikkala asarida bolalar hayotini tasvirlarkan, odamzodga xos bo‘lgan mana shu haqiqatlarni ilgari surgan. Adabiyot darslarida, o‘qituvchi-o‘quvchilar hamkorligida bu asarlar o‘quv-didaktik tahlilga tortilarkan, tarbiyalanuvchilar qahramonlar obrazi va ularning tutumlari asnosida yaxshi-yomonni, to‘g‘riyu noto‘g‘rini farqlab boradilar. Ayni zamonda, milliy qadriyatlar va ularning odamzod hayotidagi o‘rni hamda rolini ham anglaydilar. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilarni shunga to‘g‘ri yo‘naltira bilishi taqozo etiladi.



Dasturda mazkur asarlarni o‘rganish uchun belgilangan uch soatning birinchisini o‘qituvchi “Boychechak” hikoyasini o‘qib berish bilan boshlaydi. Asar tahlili jarayonini tashkil etish uchun qanday texnologiya, metod va usullardan, darsning qay shaklidan foydalanish ixtiyori o‘qituvchining o‘zida qoladi, albatta. Lekin qanday yo‘l tanlanishidan qat’i nazar asarga adabiy ta’lim maqsadidan kelib chiqib belgilangan yondashuv talqini va unda ilgari surilgan haqiqatlar o‘quvchilar bajarishlari lozim bo‘lgan vazifalar sirasiga singdirilishi kerak bo‘ladi.

Darslikdagi “Hikoyani o‘qishdan oldin” nomli bo‘limda adibning shaxsiy xotiralari bilan bog‘liq quyidagi savol va topshiriqlar taqdim etilgan: *“Tengdoshingiz Abdusaidning turmush qiyinchiliklarini kechirganiga e’tibor qiling. Bo‘lajak yozuvchidagi qaysi sifatlarni o‘zingizda bor deb o‘ylaysiz? Boychechak to‘g‘risida eshitgansiz, albatta. Uning xususiyatlarini esga tushiring. “Boychechak” hikoyasida nima tasvirlangan, deb o‘ylaysiz? Yozuvchining esdaliklari bu hikoyani yaxshiroq tushunishingizga yordam berarmikin?”*

Hali hikoya mazmuni bilan tanishmagan o‘quvchilar bu savollarga qanday javob berishadi, buni o‘qituvchiga vaziyat ko‘rsatadi, albatta. Mazkur darslikni yaratishda dunyo mezonlariga amal qilinib o‘quvchilar oldiga ular matn bilan tanishishlaridan oldin shunday vazifalar qo‘yilgan ekan, o‘qituvchi ularni o‘rtaga tashlashi kerak. Olingan javoblar qanchalik mantiqli bo‘ladi, bundan qat’i nazar ularni baholashda o‘qituvchidan ziyraklik talab qilinadi. Agar o‘quvchilardan istalgan javob chiqmagan taqdirda ham bundan fojia yasamaslik kerak. Gap shundaki, bu banddagi o‘quv topshiriq (mashq, savol yoki topshiriq)lari o‘quvchilar fantaziyasi – xayolparastligi takomiliga, farazlari (gipotezasi) darajasiga asoslangan. Ya’ni o‘quvchilarda oldindan nimalarnidir tasavvur qilish, ko‘ra bilish, taxminiy qarorlar qabul qilish ko‘nikmasining shakllanishi va rivojlanishi nazarda tutilgan.

O‘quvchilarni hikoya mazmuni bilan tanishtirishga birinchi darsning 23–24 daqiqasi sarflanadi va asarni, albatta, o‘qituvchining o‘zi ifodali qilib o‘qib beradi. Mutolaadan oldin o‘qituvchi o‘quvchilariga ular ham asarni darsliklaridan o‘zi bilan birga ichda o‘qib borishlarini, ustoz ta’kidlagan o‘rinlarga qalam bilan belgi qo‘yib ketishlari kerakligini eslatib qo‘yishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘qituvchisi yetovida hikoyani o‘qiyotgan o‘quvchilarning quloqlari matnni ifodali o‘qishga moslashib borsa, ko‘zlari so‘z va jummalarni tez o‘qishga o‘rganib boradi. Darslikda matn hoshiyasiga qalamda qo‘yib ketilgan belgilar esa undagi tahlil jarayonida e’tibor qaratishlari kerak bo‘lgan muhimlarni aks ettiradi.

Darslikdagi asar matni yuzasidan taqdim etilgan didaktik vositalar (savol va

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



topshiriqlar) ko‘magida hikoyaning tahliliga o‘tishdan avval o‘qituvchi unga yondashuv talqinini aniqlab olishi kerak bo‘ladi: *“Boychechak” hikoyasida jisman ojiz, lekin ko‘ngli toza, og‘ir hayot sabab xunukliklar orasida katta bo‘layotganiga qaramay go‘zallikka tashna va, ayni zamonda, olijanoblik tuyg‘usi o‘tkir Qo‘ziboyning shum, o‘yinbuzuqi, foydaxo‘r Murodga qarshi qo‘yib tasvirlanishi. Ko‘nglida o‘zgaga mehr ko‘rsatish hissi hukmron bo‘lgan Qo‘ziboyning ezgu niyati ko‘pchilikka ma‘qul kelishi va hammasi birgalashib onasi kasal bo‘lgan Usmonga yordam berishga intilishlari tasviri zamirida bolalarga xos bo‘lgan mehr-oqibat va samimiyatning ifodalanishi”*. Ya‘ni o‘qituvchi tahlil jarayonida o‘quvchilarning aqliy faoliyatini mana shu haqiqatlarni anglashga, shu tuyg‘ularni farqlashga yo‘naltirishi kerak bo‘ladi.

Adabiyot muallimi darslikda taqdim etilgan “Keling suhbatlashamiz” bo‘limidagi savol va topshiriqlar ustida ishlashda imkon qadar matndan uzoqlashmaslikka harakat qishi, ya‘ni o‘quvchilar diqqatini muntazam ravishda matnga qaratib turishi kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari, ustoz o‘quvchilarini matn mazmunini qaytarib aytishdan qo‘rg‘ashi, ularni o‘z mustaqil fikrini aytishga yo‘naltirishi, javob bergan o‘quvchilardan fikrini asoslashni talab qilishi adabiy ta‘limning maqsadiga muvofiq keladi. Masalan, savol va topshiriqlarning ikkinchisi: *“Bolaning Tosh tog‘asini yaxshi ko‘rishi sababini tushuntiring”* – o‘quvchini hozir matnda o‘qilgan ma‘lumotni takrorlashga yo‘naltiradi: *“Bolakay tog‘lar orasida yashovchi cho‘pon tog‘asini juda yaxshi ko‘rardi. Tog‘asi har gal unga g‘aroyib sovg‘alar olib kelardi. Chiroyli tosh granata, yog‘och avtomat ham shu kishining sovg‘asi edi”*. Yuqoridagi savolga javob berish uchun o‘quvchi istasasa ham, istamasa ham shu satrlarni eslaydi hamda xotirasi hisobidan javob beradi: matn mazmunini takrorlab aytadi. Bu o‘quvchining ma‘naviy taraqqiyotiga hech qanday ijobiy ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Savolning ikkinchi qismi: *“Siz ham tog‘angizni yaxshi ko‘rasizmi? Nima uchun?”* esa o‘quvchilarni matndan ayro tushishga, hozirgina tinglaganlari asosida ko‘ngillarida paydo bo‘lgan hislardan uzoqlashishga, o‘z shaxsiy hayotiga o‘tishga majbur qiladi. O‘y-fikri matndan uzoqlashgan o‘quvchi tahlil jarayoniga qaytganda tuyg‘ularining bir qismi sovigana, o‘zi aqlan chalg‘igan bo‘ladi va fikrlarini qayta to‘plab asarga bog‘lanish unga oson kechmaydi.

Aytish joizki, adabiyot o‘qituvchisi darslikka “yopishib olishi”, darslikdagi hamma talab-topshiriqlarga ko‘r-ko‘rona ergashaverishi shart emas. Gap shundaki, darslik o‘rtacha o‘quvchiga mo‘ljallangan didaktik ashyo hisoblanadi. O‘qituvchi o‘z



o‘quvchilarini imkon qadar o‘rtadan yuqoriga ko‘tarishga harakat qilishi, ya’ni ularni adabiy ta’lim standarti talabidan yuqorilab borishi va dasturiy talablar sari olib chiqishi maqsadga muvofiqdir. Chunki standart davlat talabi hisoblanadi va u o‘rtacha o‘quvchini shakllantirishga mo‘ljallangan. Shu ma’noda, o‘qituvchi darslikdagi savol va topshiriqlarni ma’lum darajada saralashi va sinfdagi o‘quvchilarning intellektual (aqliy) imkoniyatlariga qarab ma’lum darajada murakkablashtirib borishi ham adabiyot o‘qitish kechimining maqsadiga muvofiq bo‘ladi:

1. Qo‘zivoyning *“...birovga zarda qilgandek pachoq chelakni dam-badam dast ko‘tarib yerga to‘nkarar, botinkasining bir yoni yeyilgan poshnasi bilan chelakni ustma-ust tepki”*lashiga (o‘qituvchi o‘quvchilar diqqatini hoshiyaga qo‘yilgan birinchi belgiga qaratadi) nima sabab deb o‘ylaysiz?

2. Qo‘zivoyni tog‘asini ko‘rganidan nima uchun xursand bo‘lib ketdi deb o‘ylaysiz: ishdan qochish uchunmi yoki yaxshi ko‘rgan tog‘asi kelgani uchunmi?

3. Qo‘zivoyning boychechakni ko‘rgandagi holati tasvirlangan o‘rinlarni qayta o‘qing (o‘quvchilar diqqati hoshiyaga qo‘yilgan ikkinchi belgiga qaratiladi): *“Tog‘asi hovliga kirganda ham Qo‘zivoyning ko‘zi telpakda bo‘ldi... Har qancha iymansa ham, baribir o‘zini tutib turolmadi... – Rostdan ham mengami? - deb bolakay terisiga sig‘may irg‘ishlay boshladi. Qo‘zivoyning qo‘liga boychechak tegishi bilan u tevarakka loy sachratib, Ilontepa tomon shataloq otdi. - Ur-re-e-e! - u boychechakni qo‘lida hilpiratib, toychoqdek shataloq otib chopar edi”*. Qo‘zivoyning bu xatti-harakati tabiatidagi qanday sifatlardan dalolat beradi?

4. Qo‘zivoyning boychechak uchun bunchalar quvongani sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Nega shunday deb o‘ylaysiz, fikringizni dalillang.

5. Bolalar nega aynan qari, yolg‘iz yoki farzand ko‘rmagan insonlar yashaydigan xonadonlarga borishni reja qilishdi deb o‘ylaysiz? Bu qiliqlari ular tabiatidagi qanday sifatdan dalolat beradi, Sizningcha?

6. *“Shafqatsizligi bilan dong taratgan Murod chilimning turqidan qo‘rqulik edi”* (o‘quvchilar diqqati hoshiyaga qo‘yilgan uchinchi belgiga qaratiladi) tasviriga tayanib, tepaguzarlik bolalarning ahvoriga, turmush tarziga, Murodning tabiatiga baho bering.

7. Fotima folbinning qo‘rqinchli ko‘rinishi va muloyim fe’li o‘rtasidagi ayirma tasviriga to‘xtaling. Sizningcha, bu holatning sabablari nimada bo‘lishi mumkin?

8. Fotima folbinning quyidagi gapiga diqqat qiling: *“Aylanib ketay bahor elchisidan. Bel og‘rig‘idan qutuladigan bo‘libmanda...”* (o‘quvchilar diqqati



hoshiyaga qo‘yilgan to‘rtinchi belgiga qaratiladi). Bahor kelishi bilan folbinning bel og‘rig‘idan qutulishi o‘rtasida qanday aloqa bor deb o‘ylaysiz?

9. Shodmon akaning yig‘lagani va bolalarga ko‘p pul bergani sabablarini izohlay olasizmi? Fikringizni dalillashga urining.

10. Murod chilimning shumligi, o‘zidan kuchsiz Qo‘zivoyni har jihatdan xo‘rlashga, kamsitishga urinishining sabablari haqida o‘ylab ko‘ring. Bu tutumi uning tabiatidagi qanday sifatdan dalolat beradi?

11. Murodning: *“Ishonish kerakda, odamga. Menga ko‘pchilikning haqi kerakmas!”* (o‘quvchilar diqqati hoshiyaga qo‘yilgan navbatdagi belgiga qaratiladi) degan gapi bilan tutumlari – pullarni paytavasi orasiga tiqib qo‘ygani holatini taqqoslang. Odamning tili boshqayu dili va tutumlari boshqa bo‘lishiga nima deysiz? Hayotda aldanib qolmaslik uchun buni qanday farqlash mumkin, nima deysiz?

12. *“Cho‘kayotgan boychechagiga tikilgan cha suratga tushayotgandek qotib qolgan Qo‘zivoyning ho‘nragisi, dod solib depsingisi kelar, lekin tushunib bo‘lmaydigan allaqanday tuyg‘u uni gung qilib qo‘ygan, azbaroyi xo‘rligi kelganidan miq etolmas edi”* tasviriga (o‘quvchilar diqqati hoshiyaga qo‘yilgan navbatdagi belgiga qaratiladi) diqqat qiling. Qo‘zivoyni boychechakni shunchalar yaxshi ko‘rishiga qaramay soqov qilib qo‘ygan *“allaqanday tuyg‘u”* nima bo‘lishi mumkin? Taxminlaringizni asoslashga harakat qiling.

13. O‘ylab ko‘ringchi, Usmon haqida gapirganda (o‘quvchilar diqqati hoshiyaga qo‘yilgan navbatdagi belgiga qaratiladi) Qo‘zivoyni nega yig‘lab yubordi? Bu uning tabiatidagi qanday sifatdan dalolat beradi?

14. *“Bu gapdan Bahrilla ham, boshqalar ham titrab ketishdi. Hatto hozirgina urushqoq xo‘rozdek hurpayib turgan Murodning vujudi ham tok urgandek zirqirardi”* (o‘quvchilar diqqati hoshiyaga qo‘yilgan navbatdagi belgiga qaratiladi). Qo‘zivoyni hammani bu darajada titratib, xayratga solgan gapini matndan qayta o‘qing. Bolalarning nima uchun shunday vaziyatga tushganini aniqlashga urinib ko‘ring. Bu holat sizga qanday ta’sir qildi?

15. Murodning *“...shartta o‘tirib etigini yechdi, paytavasi orasidan g‘ijimlangan qog‘oz pullarni olib, gazetaga tashladi”* (o‘quvchilar diqqati hoshiyaga qo‘yilgan navbatdagi belgiga qaratiladi) tarzidagi harakatiga nima sabab bo‘ldi deb o‘ylaysiz? Bu xatti-harakatlar Murodga xos bo‘lgan qanday yashirin fazilat (yaxshilik)dan dalolat beradi?

Keyingi o‘quv topshiriqlari o‘quvchilar diqqatini matndan tortadi. Chunki asarning o‘quv-didaktik tahlili nihoyasiga yetdi. Endi ular bevosita o‘z shaxsi va

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



hayoti bilan bog‘liq jarayonga, xatti-harakati, fe‘l-atvori va tutumlariga tashqaridan nazar tashlashga yo‘naltiriladi:

16. Eslab ko‘ringchi, sizlar tarafda hikoya qahramonlarining tutumlariga o‘xshagan qanday udum bor? U qay paytda amalga oshiriladi? Har ikkala udumning xususiyatlarini taqqoslang.

17. Bolalar aytgan qo‘shiqning so‘zlariga diqqat qaring. Ularga odamlarning munosabatini ham aniqlang va qiyoslang. Buning sabablari haqida ham fikr aytishga urinib ko‘ring.

18. Odamzodning fe‘li-xarakteri uning taqdiriga qanchalik bog‘liqligi haqida o‘ylab ko‘ring. Bu bolalarning tutumlari misolida ertaga ulardan qanday Odam shakllanishi mumkinligi haqida mulohaza yuriting. Fikringizni asoslang.

Bir soat (45 daqiqa)lik dars jarayonida hikoyaning o‘quv tahlilini amalga oshirishga qanchalik darajada erishiladi, buni sinfdagi vaziyat va o‘quvchilarning qanchalik tez fikrlashi bilan bog‘liq tabiati hal qiladi, albatta. O‘qituvchi imkon qadan tez va samarali ishlashga intilishi o‘quvchilarning ma‘naviy kamolotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. O‘quvchilar javob berolmay qolgan o‘rinlarda ham o‘qituvchi o‘z savoliga o‘zi javob bermasligi, javoblarni ochiq qoldirgani tuzuk. Bu bilan o‘qituvchi, avvalo, o‘quvchilarini o‘z qolipiga solib qo‘yishdan asraydi. Qolaversa, tarbiyalanuvchilar bu savollar haqida o‘ylashni davom ettirishlari mumkin. Adabiy ta‘limning maqsadi ham shuni nazarda tutishini unutmasligi kerak muallim.

Mening nazarimda, darslikdagi uy vazifasi ham mantiqan bir oz sayozroq. Ya‘ni, o‘rtacha o‘quvchi darajasida tuzilgan. Hikoya matnida o‘yinning nomi ham, turi ham aks etmagan. Qolaversa, bu ish turi o‘quvchi ma‘naviy kamolotiga katta hissa qo‘sholmaydi. O‘quvchi xotirasini ishga solib bolalikdagi o‘yinlarning birortasini eslaydi, albatta. Uning xususiyatlarini sanab beradi. Lekin o‘qituvchi uy vazifasini bolalarga yanada qiziqarliroq bo‘lgan, ularning ijodiy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishga sharoit yaratadigan mazmunda, tanlash imkoniyati bilan berishi adabiy ta‘limning maqsadga muvofiqroq bo‘ladi.

Ya‘ni istagan o‘quvchilar darslikdagi uy vazifasini bajarishsin. Boshqalariga: “Tabiatingizdan kelib chiqqan holda O‘zingizni bolalar bilan taqqoslang. Sizning xarakteringizda hikoya qahramonlarining qaysi biriga xos bo‘lgan sifatlar yashiringan? Shundan kelib chiqqan holda ‘Men va (Qo‘zivoy, Bahrullo, Murod) ...’ mavzusida yashirin ijodiy ish yozing” yoki “Kundalik yuriting. Unda hayotingizda ro‘y berayotgan shu kabi hodisalarni badiiy asar shaklida bayon etishga urinib ko‘ring” tarzidagi vazifalarni tanlash imkoniyati bilan taqdim etish mumkin va hk.



Vaziyatdan kelib chiqib o‘qituvchi Abdusaid Ko‘chimov asarlarini o‘rganishga rejalashtirilgan ikkinchi soatning yarmini mazkur tahlilni davom ettirishga ajratishi ham mumkin. Buni vaziyatga qarab o‘qituvchining o‘zi belgilaydi.

Ikkinchi soatdan qolgan vaqt darslikda guruhlarda ishlash yuzasidan berilgan topshiriq ustida faoliyat olib borishga sarflanadi. O‘quvchilarning guruhlariga bo‘linib ishlashi ularning tabiatida qanday sifatlarning shakllanishiga xizmat qilishi mumkinligini hamma o‘qituvchi juda yaxshi biladi, albatta. Buning uchun ish rejasida maxsus bir soat ajratilgani ham bejiz emas. Bu o‘rinda asosiy muhim masala o‘quvchilarning qanday guruhlanishida. O‘qituvchi guruhlariga bo‘linishni o‘quvchilarning ixtiyoriga havola qilgani durustmi yoki bu ishni o‘zi topshiriq shaklida aralash holda amalga oshirgani to‘g‘rimi? Buni sinfdagi o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlaridan kelib chiqqan holda o‘qituvchining o‘zi aniqlagani ma‘qul. Bir sinfda o‘quvchilarga guruhlarda (ixtiyoriy ravishda) birlashish imkoniyatini berish bilan ko‘proq amaliy natijaga erishish mumkin bo‘lsa, ba‘zi sinflarda, ya‘ni o‘quvchilar o‘zaro inoq bo‘lmagan vaziyatlarda o‘qituvchining bosh bo‘lishi to‘g‘riroq bo‘ladi. Buni o‘qituvchining pedagogik mahorati hal qiladi.

O‘quvchilarning guruhlardagi faoliyati, har bir guruh a‘zolarining o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifa (1. Murodning tabiatiga baho berish; 2. Hikoyadagi sheva xos bo‘lgan so‘zlar, ibora va maqollarni aniqlash; 3. Shevaga xos so‘zlarning adabiy tildagi muqobilini aniqlash va 4. Hikoya matnida berilgan “Boychechak” qo‘shig‘ini bir butun holga keltirish, uni ijodiy davom ettirish va qo‘shiq matni bilan bog‘liq so‘zlardan lug‘at tuzish)ni bajarish bilan bog‘liq faoliyati, ishning bajarilganlik darajasi o‘quvchilarning o‘zaro va o‘qituvchining bahosi bilan uyg‘unlashtiriladi.

Ikkinchi dars oxirida uyga vazifa sifatida berilgan topshiriq: *“Abdusaid Ko‘chimovning quyida berilgan “Hovlidagi maydoncha” hikoyasini o‘qing. Sizni o‘ylantirgan o‘rinlarni ustozingiz bilan muhokama qilish uchun belgilab qo‘ying. Navbatdagi darsda ustozingiz bilan savol-topshiriqlar ustida ishlang”* o‘quvchilarni uyda o‘qishga yo‘naltirilganligi bilan diqqatga sazovor. O‘qituvchi bu uy vazifasi keyingi darsda hikoyaning o‘quv tahlili shaklida tekshirilishini alohida ta‘kidlagan holda berishi kerak bo‘ladi. Iloji bo‘lsa, hikoya mutolaasidan keyin darslikdagi savol va topshiriqlarga bir ko‘z yugurtirib qo‘yishni tayinlash ham foydadan holi bo‘lmaydi. O‘quvchilar ertaga shu savol va topshiriqlar ustida ishlanishini yaxshi tushunishadi hamda ayrimlari yaxshi baho olish maqsadida ularga javob berishga tayyorlanib kelishlari ham mumkin.

Uchinchi darsda “Hovlidagi maydoncha” hikoyasi tahliliga kirishishdan oldin

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



o‘qituvchi asarga yondashuv talqinidan xabardor bo‘lishi shart. Bu xabardorlik o‘qituvchi-o‘quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati mazmunini belgilab beradi: *“Hovlidagi maydoncha” hikoyasida tabiatida birovga yaxshilik qilish, adolat uchun kurashish tuyg‘usi kuchli bo‘lgan Oybek hamda unga birovlarning ishiga aralashmaslikni o‘rgatuvchi ona bilan tengdoshi Salimning ko‘rsatgan ta’siri tasviri. Bolalar shaxsi shakllanishida tashqi ta’sirlarning ahamiyati ifodasi. Bu ikki hikoyada o‘smirlarda adolat va ezgulik tuyg‘ularini shakllantirishga xizmat ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan sifatlar tasvirining ifodalanganligi*”. O‘qituvchi darsdagi butun faoliyatini to‘laligicha mana shu talqin va maqsadga xizmat qildirishi taqozo etiladi.

Darslikning “Keling, suhbatlashamiz” bo‘limida hikoyaning o‘quv tahlilini amalga oshirish uchun to‘rt bosqichdan iborat vazifa taqdim etilgan. O‘quvchilar izchillik bilan bu vazifalarni bajarishga yo‘naltiriladi. Bu yerda amalga oshirilishi muhim ahamiyatga molik bo‘lgan asosiy ish turi ikkinchi qadam bo‘lib, bunda o‘qituvchining faoliyati o‘quvchilarni hikoya qahramonlari (bolalar obrazi)ga xos bo‘lgan xarakter-xususiyatlarni aniqlash, ularning xatti-harakatlarini muhokama qilish, munosabat bildirish va baholashga qaratiladi.

Darslikda bu yo‘nalishda to‘rtta o‘quv topshirig‘i taqdim etilgan bo‘lib (bundan ortig‘ini darslikning hajm imkoniyati ham ko‘tarmaydi) bu bilan timsollarning xarakter-xususiyatlari to‘liq ochilmay qolishi mumkin. O‘qituvchi sinfdagi o‘quvchilar matn mazmunini takrorlashlariga yo‘l qo‘ymay ularning intellektual imkoniyatlariga qarab kengaytirilgan quyidagi savol va topshiriqlar bilan murojaat qilgani maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Hikoyaning birinchi qismidagi Salim, Oybek va Kamol orasidagi o‘zaro munosabatga baho bering. Kattalarning kichkina Kamolga munosabatini qiyoslang.

Birinchi topshiriq yuzasidan o‘quvchilar bilganlaricha fikr aytishadi, albatta. Ma’lumki, odamzodning tabiatida undan nima so‘ralsa, ya’ni unga qandaydir savol yoki iltimos bilan murojaat qilinsa, javob berishi kerak degan bir haqiqat o‘rnashgan bo‘ladi. Shu bois dars jarayonida o‘quvchilar oldilariga qo‘yilgan savolga javob berishga yoki topshiriqni bajarishga tirishadilar. Mabodo, javob bermagan taqdirda ham ichida savol haqida o‘ylaydi, ba’zan, indamay o‘tirsam ham xayolida tayyor javoblari bo‘ladi. Darslikdagi ikkinchi savol (o‘zini qanday tutdi?) o‘quvchilarni matn mazmunini qaytarib aytib berishga yo‘naltiradi. Shu bois o‘qituvchi uning mazmuniga bir oz o‘zgartirish kiritishi o‘rinli bo‘ladi:



2. Yiqilib tushgan bolakayga nisbatan Oybek bilan Salimning xatti-harakatlarini qanday baholaysiz? Sizningcha, kim to‘g‘ri ish qildi: tarsaki yegan Oybekmi yoki qochib qolgan Salimmi? Javobingizni asoslang.

3. Oybekka qarata aytilgan: *“O‘zingdan ko‘r, qochib ketganingdaku... Bunaqa paytda kallani ishlatish kerakda, kallani!”* tarzidagi “dono” fikrga Siz ham qo‘shilasizmi? Salim *“kallasini ishlatib”* to‘g‘ri ish qildimi, nima deb o‘ylaysiz?

4. Salimning: *“Vaqtida qochganidaku... Mayli, bundan keyin pishiq bo‘ladi”* degan iqroriga munosabat bildiring. Uning bu gapiga siz ham qo‘shilasizmi: Oybek ham qochib qolganda tarsaki yemasdi. Shu to‘g‘ri bo‘larmidi? Fikringizni asoslang.

5. Asarning ikkinchi qismida Turdining qilmishi sizda qanday taassurot qoldirdi? Xatti-harakatlaridan kelib chiqib unga xos sifatni aniqlang.

6. Omonning holatini tasavvur qiling. Ko‘nglingizda unga nisbatan qanday hislar kechdi? Turdiga nisbatanchi? Tuyg‘ularingizni so‘z bilan ifodalashga urinib ko‘ring.

7. Oybekka bergan maslahati: *“Ahmoqmisan? Aralashib nima qilasan? Akasi “nastoyashiy xuligan”ku! Aytsa, bir urib, majaqlab tashlaydi”*ga asoslanib Salimni, qilmishiga qarab Turdini Ahmad bilan taqqoslang. Ko‘nglingizda ularning qaysi biriga moyillik bor? Uchallasidan qaysi birini haq deb hisoblaysiz? O‘ylab ko‘rib javob bering.

8. Nima deb o‘ylaysiz, Oybek nega Ahmadga yordam bermadi? Uni qo‘rqoq deb atash mumkinmi? Yoki Salimning maslahatlari bilan u ham “pishiq” bola bo‘lib qoldimi?

9. Hikoyada: *“Yuragi har qancha achisa ham, Oybek kaltak o‘ziga tegmaganidan ichida quvonadi. Salimning hushyorligiga tan beradi”*, tarzidagi fikr bor. Siz nima deb o‘ylaysiz, Siz ham Oybekka o‘xshab Salimning hushyorligiga tan berdingizmi? Yoki siz boshqacha fikrdamisiz? Fikringizni asoslang.

10. Hikoyadagi Omoncha va Ahmadning xatti-harakatlari tasvirlangan o‘rinlarni qayta o‘qing (buni o‘qituvchi ko‘rsatib beradi yoki o‘zi o‘qib beradi). Ulardan qay biri tabiati bilan sizga ma‘qul keldi? Uni o‘zingiz bilan taqqoslang. Nima uchun o‘sha bolaning tutumlari sizga ma‘qul kelganini asoslashga urinib ko‘ring.

11. Hikoya matnida alohida ajratib yozilgan shunday suhbat bor: *“– Oyi-chi, bugun zo‘r urish bo‘ldi! “Nastoyashiy xuligan” Ahmadni rosa do‘pposladi.*

– *Yana oraga tushdingmi?!*

– *E-e, jinnimanmi! Tekin tomosha ko‘rdim mazza qilib.*

**“O‘ZBEK FILOLOGIYASI:
MUAMMO VA YECHIMLAR”**
mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



– Barakalla, ana endi esing kiribdi. Aralashma unaqa janjal-to‘polonlarga. O‘zingdan boshqa bilan ishing bo‘lmasin. Ona o‘g‘lidan mamnun bo‘ldi”. Bu suhbat kimlarga tegishli deb o‘ylaysiz?

12. Ko‘chadagi “tekin tomosha”dan “mazza qilgan” bolaning onasi bilan suhbatini ko‘nglingizda qanday hislarni qo‘zg‘adi? Bu bola, sizningcha kim? Salimmi yoki uning maslahatlaridan keyin “pishiq” bo‘lib qolgan Oybekmi? Nimaga asoslanib shunday deb o‘ylayapsiz?

13. Turdining zo‘ravonligi sabablari nimada, Sizningcha? Akasining “nastoyashiy xuligan”ligimi yoki uning o‘zi tabiatan shundaymi? Buni qanday aniqladingiz?

14. Oybekning xayolidan kechgan “*Bittasiyam ajrataylik demaydiya*”, degan fikrga asoslanib uning shaxsiga baho bering. U o‘rtoqlaridan xafa bo‘lishga qanchalar haqli deb o‘ylaysiz? Mazkur vaziyatda atrofda bolalarning bu tutumiga ham munosabat bildiring: ular nega bolalarni ajratishmadi, Sizningcha?

15. O‘ylab ko‘ringchi, Oybek, Salim, Omoncha, Ahmad, Turdilar ulg‘ayib, qanday odamlar bo‘lisharkin? Javobingizni izohlang.

16. Uchinchi qismda Oybek va Turdi munosabatlari tasviriga diqqat qiling. O‘zingizni kuzatingchi, ichingizda ularning qaysi biriga moyillik bor? Bu moyillikning sabablari haqida suhbatlashing.

“**3-qadam**”da hikoyaning “*umumiy mazmuni*” bo‘yicha o‘quvchilar oldiga ikkita vazif qo‘yilgan bo‘lib, ular bilan ishlash tarbiyalanuvchini asar matnidan uzoqlashtiradi. Qolaversa, hikoyada odamga xos bo‘lgan “qitmirlik” sifati haqida hech narsa deyilmagan. O‘qituvchi istasa, shu savollar bilan cheklanishi mumkin, albatta. Lekin, o‘quvchilari shaxsida fikr kishisini shakllantirishni istagan o‘qituvchilar ularni mustaqil, mantiqli va tanqidiy fikrlashga yo‘naltiruvchi quyidagi o‘quv topshiriqlaridan foydalanishi mumkin:

1. Hikoya so‘ngida Oybekning onasi tomonidan aytilgan: “*Ko‘rib turuvdi?! Ko‘rib turib indamay tomosha qip o‘tirdimi? Ajratib qo‘yaylik degan gap chiqmadimi birontasidan?.. Chiqmaydi, Chiqmaydiyam!*” gaplariga munosabat bildiring. Sizningcha, ona haqmi yoki nohaqmi? Uning haqligi nimada? Nohaqligichi?

2. Oybekning yaxshi odam bo‘lishida onasining o‘rni qanday? Oybekning oilada topgan tarbiyasi uning kelajagi uchun qanchalik foydali? Odamligi uchunchi?

3. Hikoyadagi oxirgi jumla: “*G‘azabi qo‘zigan ona hayrat va alam bilan yoqasini ushladi...*”ga diqqat qiling. Siz ham xayratdamisiz mazkur vaziyatdan yoki



unga aql bilan yondashib ko‘rasizmi? Kattalarning qachon va qanchalik haq bo‘lishlari, bu haqlik yoki nohaklikning asoslari haqida o‘ylab ko‘ring.

4. Hikoyaning bayon uslubiga diqqat qiling. Uning tili boshqa hikoyalarning matnidan nimasi bilan farq qilyapti?

“4-qadam”da hikoyadagi “*onalar obrazi*”ni taqqoslash borasida uy vazifasi taqdim etilgan. O‘rni kelganda shuni ham aytish joizki, birinchi topshiriq matnidagi: “Uni o‘z onangiz bilan taqqoslang” vazifasi unchalik ham o‘rinli emas, nazarimda. Gap shundaki, bizning o‘zbekda “kattalar, ayniqsa, onalar hamisha haq” degan bir haqiqat bolalarning ongiga ham, ruhiyatiga ham juda chuqur o‘rnashib qolgan va bu ular o‘zlari ota-ona bo‘lganlaridagina ularning o‘zlari tomonidan bir oz muhokama qilinishi mumkin. Bu ham kamdan-kam hollarda sodir bo‘ladi: chunki hech kim onasini yomon demaydi. Shu bois kichik o‘smirni onasining tutumlari, xatti-harakatlari va tarbiya borasidagi qarashlarini muhokama qilishga undash, uni o‘zga onalar bilan qiyoslashga yo‘naltirish pedagogik tuqtai nazardan noto‘g‘ri. Qolaversa, onalar ham har xil. Ularning orasida Komilnikiga o‘xshagan yoki Oybekning onasiga o‘xshab fikrlaydiganlari bo‘lishi mumkin va bu tabiiy ham. Ko‘pning ichida har xil odam bo‘ladi. Shu ma’noda, bunday nozik masalaga daxl qilmagan ma’qul va bu baddagi didaktik ish turini quyidagi savol-topshiriqlar ko‘magida amalga oshirish o‘rinli bo‘ladi:

1. Kamolning onasi tilidan aytilgan: “*Chigitday go‘dakni qoniga bo‘yagan qo‘llaring sinsin, iloyim! O‘ldirib qo‘yay debsanku, bolam bechorani! – shang‘illaydi u. – He, ko‘zing hakkaning ko‘ziga o‘xshamay o‘l! – battar tutaqadi ayol. – Odam gapiryaptimi, it huryaptimi demaydiya!*” tarzidagi gaplarga tayanib onaning shaxsini baholang. Qilgan ishiga munosabat bildiring. Sizningcha, u bolasiga mehribon ayolmi? U Oybekka tarsaki tushirib to‘g‘ri ish qildimi? Fikringizni asoslang.

2. U qanday ish qilsa to‘g‘ri bo‘lardi, sizningcha? Nima deb o‘ylaysiz? Xulosalaringizni asoslang.

3. Hikoyaning birinchi qismida Oybekning onasi o‘g‘liga bergan tanbeh va nasihatga diqqat qiling: “*Shoshmay tursin hali, ertaga bir ko‘ray uni. O‘zi hamma ayb senginada. Yiqilsa, yiqilib yotavermaydimi? Turg‘izib nima qilasan?*

– *Yomon yiqiluvdida, burniyam qonab ketdi. Salim ham bor edi. U qochib qoldi.*

– *Qonasa, senga nima! Qochib qoptiku Saliming! Ikkinchi birovning tarafini olma. Agar yana shunaqa qilganingni ko‘rsam...*” Nima deb o‘ylaysiz, Oybekning onasi unga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatyaptimi? Nega shunday deb o‘ylaysiz?



4. Oybek ko‘chadan “tekin tomosha” ko‘rib “maza qilib” kelganda onasining: *“Barakalla, ana endi esing kiribdi. Aralashma unaqa janjal-to‘polonlarga. O‘zingdan boshqa bilan ishing bo‘lmasin”*, deya o‘g‘lidan mamnun bo‘lgan onaning fikriga qo‘shilasizmi? Nima deb o‘ylaysiz, ona o‘g‘liga to‘g‘ri tarbiya beryaptimi? Fikringizni asoslang.

5. Oybek kaltak yeb kelganda onasining: *“Ko‘rib turib, indamay tomosha qip o‘tirdimi? Ajratib qo‘yaylik degan gap chiqmadimi birontasidan?.. Chiqmaydi, chiqmaydiyam! Bola emas bular. Ikkitasini mushtlashtirib qo‘yib, tomosha qilish bo‘lsa ularga. Yo tavba! Yo tavbangdan! Nega buncha beoqibat bo‘lib o‘syaptiya bu bolalar!”* g‘azab, hayrat va alam bilan aytilgan ushbu fikrlarini sharhlashga harakat qiling. Onaning xavotiri sabablarini tushuntirib bering.

6. Kechagina o‘z o‘g‘lini hech narsaga aralashmaslikka o‘rgatgan onaning bugun o‘g‘li kaltak yeb kelgandagi holatda bolalarning beoqibatligidan nolishi va hayratlanishi nimadan dalolat beradi? Onaning ikki xil vaziyatdagi holatiga munosabat bildiring. Buning sabablari haqida o‘ylab ko‘ring.

7. Bolalar tarbiyasi va ularning yaxshi inson bo‘lishida onalarning o‘rnini qanday baholaysiz? Fikringizni dalillang.

Darslikdagi uy vazifasi bilan bog‘liq so‘nggi topshiriqqa binoan ikki onaning qilmishlarini taqqoslash bilan birga ularning qayerda haq va qay holatda nohaq ekanligini bayon etish, ularning tutumlariga munosabat bildirishni talab etish o‘rinli bo‘ladi. Buning uchun jadvalga yana bir ustun qo‘shish taqozo etiladi.

O‘quvchilar munosabat bildirish uchun mustaqil fikrlashlari kerak bo‘ladi. Mustaqil fikrlash esa, o‘z-o‘zidan mantiqni, fikriga, munosabatiga mantiqiy asosni talab qiladi. Shu tariqa o‘quvchilar o‘zlari anglab-anglamay, farqlab-farqlamay fikr kishisiga aylanib boradilar. Kashfiyotlar qiladilar. Haqiqatlarni anglaydilar. Buning uchun o‘qituvchi ziyrak, ayni zamonda o‘zi fikr kishisi bo‘lishi shart. Har bir o‘qituvchi o‘quvchilarini o‘zining darajasida tarbiyalaydi. O‘qituvchining bilimliligi va ma‘naviy sog‘lomligi darajasini o‘quvchilari namoyish etadi. O‘qituvchining saviyasi u tarbiyalagan o‘quvchilarda bo‘y ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Adabiyot”.5-sinf (1-qism): darslik / Q. B. Yo‘ldoshev, O. O. Olimjonov, N. N. Ysufjonova, S. I. Qambarova, D. B. To‘xliyeva. – Toshkent: Novda Edutainment, 2024. – 100 b.
2. Umumiy o‘rta ta‘limning adabiyot fani o‘quv dasturi. – Toshkent, 2024.